USTOZ HAYOTI – BIZ UCHUN IBRATDIR!



Professor Majidxon Bahodirov tavalludining 120 yilligiga bag‘ishlanadi.

Inson hayoti ona tabiatning – suv, havo va tuproq sofligiga bog‘liq. Ularning har birini bahosi yo‘q, beqiyosdir. Tuproqning o‘zini ta’rif etadigan bo‘lsak, kunlik iste’mol qiladigan non, oziq-ovqat, xo‘l mevalarning barchasi tuproqda o‘sadi. Shu sababli ona tuproqning ahamiyatini bilish – hayot-mamot masalasidir. Men o‘zimni juda baxtli insonlardan biriman desam, mubolag‘a qilmagan bo‘laman. Chunki mening otam – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, professor Majidxon Bahodirov mamlakatimizning birinchi tuproqshunos olimilaridan.

O‘zlari hayot chog‘larida 50, 60 va 70 yoshlik tavalludlari hamda ilmiy ishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlarda ishtirok etganlar. Vafotlaridan keyin tavallud sana lariga bag‘ishlangan tadbirlar Toshkent davlat agrar universitetida o‘tkazib ke-linmoqda. 2023 yilda marhum otamiz-ning 120 yilik tavalludlari keng miqiyosda nishonlandi.

M. Bahodirov 1903 yili Toshkentda «Beglarbegi» madrasasining mudarrisi, o‘z davrining mashhur olimi Bahodirxon Mahdum oilasida tug‘ilgan. Dastlabki ta’limni otasidan arab va fors tillari bo‘yi-cha, keyinchalik eski maktabda ta’lim olgan. Olti yoshida otadan yetim qolga-niga qaramay ilm olishga bo‘lgan ishtiyoqi so‘nmadi.



1919-1921 yillarda o‘qituvchilar tayyor-lash kursida o‘qib, boshlang‘ich maktab-larda o‘qituvchilik qilgan. 1923 yilda shahar xalq maorifining «Mozorxon» mahallasi-dagi, eski usuldagi maktabni isloh etib, o‘rniga 45-son maktabni tashkil qilib, shu maktabda mudir va o‘qituvchi lavozimida ishlagan. 1925-1927 yillarda «Savodsizlikka qarshi kurash» shiori ostida boshlangan yurishda faol ishtirok etgan, savodxonlik kursini uyushtirib, o‘qituvchilik qilgan. 1928-1930 yilarda u Ulug‘bek, Cherni shevskiy nomidagi maktablarda hamda Pedagogi-ka bilim yurtida o‘qituvchilik qilgan. 1930 yili Majidxon Bahodirov hozir-gi Toshkent Davlat agrar universitetining agronomiya fakultetiga o‘qishga kirib 1934 yili o‘qishni imtiyozli tugatgach, 1935 yilgacha SoyuzNIXIda tuproqshu-nos vazifasida ishlagan. 1935 yili hozirgi Toshkent davlat agrar universitetining «Tuproqshunoslik kafedrasi»ga ishga taklif etildi.

1944 yilda M. Bahodirov O‘rta Osiyo Davlat universitetida yangi tashkil qilin-gan Sharq fakultetiga o‘tkazilgan. Arab tili grammatikasining bilimdoni sifatida «Arab tili kafedrasi»ga mudirlik qilgan va 1948 yilgacha arab tilidan dars berdi. Olim tomonidan «Arab filologiyasiga kirish» qo‘llanmasini va «Arab tili xrestomatiyasi» yaratilgan. Bulardan tash-qari M. Bahodirov tomonidan «Arabcha o‘qish kitobi» va «Al-muntaxobat ul-arabiy-ya» singari kitoblari ham chop ettirilgan.

ISSN 2181-0826 4/2023 y.

Mazkur kitoblar o‘z davrida O‘zbekistonda talabalarga arab tili va adabiyotini yangicha asosda o‘rgatishda muhim munba bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, hozirgi kunda ham ilmiy ahmiyatini yo‘qotgan emas.

M. Bahodirov 1947 yilda qishloq xo‘jaligi sohasidagi ilmiy ishlarinining natijasi sifatida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, qishloq xo‘jalik fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. Shu yili dotsentlik, 1971 yilda professor unvoni berildi.

Professor Majidxon Bahodirov nafaqat tuproqshunoslik sohasida, balki, Islom dini, Sharq falsafasi va lug‘at sohasiga oid ilmlarni ham egallagan serqirra olim bo‘lganlar. Ustoz olim tuproq sohasidagi zamonaviy bilimlarni Islom diniga oid ilmlar va Sharq falsafasi bilan bog‘liq holda birlamchi manbalar asosida o‘rganishga alohida e’tibor qaratganlar. M. Bahodirov ilmga bunday yondashish jamiyatni atrof muhitga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishda muhim deb qaragan. U kishining mazkur jihatlari haqida hamkasblari va shogirdlari doimo to‘lib-toshib gapirishadi, uning tuproqshunoslik fani sohasida ko‘rsatgan fidoyiliklaridan faxrlanadilar.

M. Bahodirov kuch-quvvatini yosh avlod tarbiyasiga, talabalarga bilim berishga bag‘ishlagan. Ona tuproqqa mehr kabi fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan olim pok qalbli va yuksak orzu-umidli, bag‘ri keng, tom manoda ziyoli inson bo‘libgina qolmay balki insonlarni o‘ziga beixtiyor jalb qila oladigan va ularning qalbiga kirib bora oladigan mohir ustozdirlar.

«Talabalarni tuproq sirlaridan xabardor etish, ilmu ma’rifat o‘rgatish katta hayotda o‘z o‘rinlarini topib olishlari uchun ko‘maklashishdan ortiq xayrli baxt bormu bu olamda?» – der edilar. Shu bois tug‘ma pedagog sifatida talabalarning sevimli ustozi bo‘lgan. U kishining rahbarligida minglab talabalarning tuproqshunoslik sohasining bilimdoni bo‘lib vatanimizning qishloq xo‘jaligi sohasida xizmat qilmoqda.

M. Bahodirov yuksak madaniyatli olimlik bilan birga ibratli oila boshlig‘i ham bo‘lganlar. U kishi olti farzandini madaniyatli va ilmli bo‘lishiga alohida e’tibor qaratgan.

Majidxon Bahodirovning bir o‘g‘li – Vadudxon Bahodirov biolog, o‘simliklarni himoya qilish ilmiy-tadqiqot institutida bo‘lim mudiri bo‘lib, boshqa o‘g‘li – Raufxon Bahodirov Toshkent to‘qimachilik institutida katta o‘qituvchi, bir qizi – Najiba Bahodirova Toshkent texnika institutida o‘qituvchi, boshqa bir qizi – pedagogika fanlari nomzodi Zakiya Bahodirova Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislar institutida dotsent, yana bir qizi – Rashida Bahodirova Toshkent shahridagi 70-maktabning oliy toifadagi o‘qituvchisi, o‘g‘li – falsafa fanlar doktori, professor Roiqxon Bahodirov Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti loyiha rahbari sifatida faoliyat olib bormoqdalar.

M. Bahodirovning ko‘p yillik samarali va faol mehnatlari hamda samarali ish faoliyatlari yuksak baholanib, «Hurmat belgisi» ordeni, «Shavkatli mehnat uchun» medali, «SSSR qishloq xo‘jaligi a’lochisi» nishoni, «O‘zSSRda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi» unvoni, O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining «Faxriy yorlig‘i», O‘zSSR Oliy Soveti Prezidiumining «Faxriy yorlig‘i» bilan mukofotlangan.

Hozirda Toshkent Davlat agrar universiteti ilmiy kengashi qarori bilan universitetda «Professor Majidxon Bahodirov» nomli maxsus stipendiya ta’sis qilinib, universitet «Hurmat kitobi»ga qayd qilingan. Shuningdek, «Tuproqshunoslik kafedrasi»ning ma’ruza o‘qish xonalaridan biriga Majidxon Bahodirovning nomi berilgan.

Najiba Bahodirova